

## **OILADA MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING VAZIFALARI**

Tashpo'latova Nodira Xudjamuradovna Jizzax davlat pedagogika instituti "Umumiy psixologiya" kafedrası o'qituvchisi.

Nuriddinova Saida Muxtor qizi davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi 2-kurs talabasi.

**Annatsiya:** Ushbu maqola o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari, ota-ona ma'suliyati va bolalar munosabatlari, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zahirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning shakllantirishida ota-onalarning roli to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila muhiti, bola kelajagi, bola ruhiy dunyosi, ijtimoiy tasavvur, o'smir bolalar munosabati, milliy xususiyatlar.

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zahirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan izoh beradigan bo'lsak: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... o'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onaning mehribonchiligi, e'tibori zarur. Aksariyat jinoyatchi bo'lib qolgan bolalar ota-onalarining va yaqin qarindoshlarining mehribon emasligidan aziyat chekadilar. Bunday nosog'lom oila muhitida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi mumkin.

Bundan tashqari, u bekorchilik oqibatida, ichkilikbozlik, o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchilik ko'chalariga kirib ketishi yoki turli jinoiy va diniy ekstremistik guruhlarining ta'siriga tushib qolishi mumkin. Oilada o'smir bola nima bilan doimiy band va qanday ishlar bilan shug'ullanishini dastlab aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik ona sezib qoladi. Lekin oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi.

SHu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakka, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek: "Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafasat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalardir". SHunday ekan, oila muhiti, qolaversa, bolalarning kelajagi, ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy tasavvurlarining ijobiy va boy bo'lishi ko'p jihatdan onalarga bog'liq.

Oilaviy kelishmovchiliklar ko'pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi

mumkin bo'lgan ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo'ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muamolar yuzasidan ota-onalar o'z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba'zan fikr so'raydiganlar qishloq oilalariga xosdir.

Jinsga oid oladigan bo'lsak, ota-onalarning bolalaridan fikr so'rashi o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko'proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu albatta, bir tomondan o'smirlarga xos maksimalizm bo'lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko'rsatadi. SHuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to'xtata olishlariga ishonadilar.

O'smirlar bilan muomalada har bir ota-ona, kattalar, avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, iloji boricha ular bilan yumshoq va jiddiy munosabatda bo'lishlari, ayrim masalalarda ularning ham fikrlarini so'rashlari, gaplariga e'tibor bilan quloq solishlari kerak.

Xullas, oila ma'naviyati tizimida o'zaro munosabatlarning tartib-intizom, ota onalik burchining anglanish darajasining ahamiyati nechog'li kattaligini isbotlaydi. Oilaviy o'zaro munosabatlarda ba'zan kattalarning aybi bilan sodir bo'ladigan nizolar, tabiiyki, bola tomonidan idrok qilinadi, anglanadi, ma'lum bir bahoga (ijobiy va salbiy) ega bo'ladi. Ushbu baholar real vaziyatlarda salbiy xulq shaklida namoyon bo'ladi. Natijada bolaning oilaga, uning qadriyatlariga, istiqbolda oila qurishga bo'ladigan intilishlarida aks etadi.

Oilaviy kelishmovchiliklar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar esa oiladagi munosabatlar ustivor bo'lgan oilalarda ijobiy, nosog'lom yoki notinch, qattiqqo'llik va asossiz tazyiq, ustun oilalarda esa salbiy holatlarga olib keluvchi tasavvurlar shakllanadi.

Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy – ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, qolmasdan, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari boyib boradi, real hayot mazmunini chuqurroq anglash, ya'ni farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish holati ro'y beradi.

Oila tarbiyasida ob'ektiv va sub'ektiv omillarning roli katta. Ob'ektiv omillar sirasiga: oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik, shu bilan birga mayishiy turmush darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar kirsa;

- oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish va shu kabilar su'bektiv omillar sirasiga kiradi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularni hosil qiluvchi o'ziga xos maskani sanaladi. Bolalar "Vatan", "Xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o'zlashtiradilar. Zero, oilaning o'zi

Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urish Vatanni sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzqiy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy siyosiy tarbiyasining asosi bo'lishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.K. Minavvarov. pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996 y.
2. H. Yo'ldoshev "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi kontseptsiyasi". 2012y.
3. Toshpo'latova, N. (2021). THE ROLE OF POLEMICS IN AHMUDKHOJA BENBUDI'S WORK. *Konferentsii, 1(1)*. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.904>
1. Malikaxon Qodirova, **МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
2. Malikaxon Qodirova, **МАШГУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
3. Malikaxon Qodirova, **О'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA О'SMIR XULQ-ATVORINING О'ZIGA HOSLIGI**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
4. Malikaxon Qodirova, **AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
5. Malikaxon Qodirova, **ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education
6. Malikaxon Qodirova, **ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education
7. Jumanova, N. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОБУЖДЕНИЯ БОЛЬШОЙ ГРУППЫ ДЕТЕЙ ЛЮБОВЬ К ЛИТЕРАТУРЕ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
8. Jumanova, N. (2021). ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕФЕКТОВ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
9. Nasiba Jumanova, **ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ АКТИВАЦИИ, УСКОРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

10. Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.

11. Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

12. Dilfuza Qarshiboyeva, **КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

13. Dilfuza Qarshiboyeva, **IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 4 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

14. Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>

15. Toshpo'latova, N. (2021). СНЕТ ТИЛИ FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3073>

16. Nodira Toshpo'latova, **ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ - УЧИТЫВАТЬ ПСИХИКУ УЧАЩИХСЯ**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

17. Nodira Toshpo'latova, **ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАҲБАРИНИНГ МУЛОҚОТИ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА**, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

18. Ахмедова Насиба Ачилловна, СОҒЛОМ МУҲИТ –СОҒЛОМ ОИЛА ТАЯНЧИ. <https://history.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2966/1982>

19. Ж.Мажидов. ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>

20. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДАГИ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИ БОЛАНИНГ МУВАФФАҚИЯТГА ЭРИШИШИГА ТАЪСИРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3076>

21. Imomqulova, F. (2021). ОИЛАДА ЭР-ХОТИН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2962>

22. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>
23. Imomqulova, F. (2021). ISSUES OF UPBRINGING IN UZBEK FAMILIES. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2620>

